

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AKTGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

N.A.Olimboyeva

Toshkent Moliya instituti magistri

Bashariyat iqtisodiyot tarmoqlari o'zgarishi, bu jarayonning raqamlashuvi, mobillashuvi, sohaga sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bog'liq muhim davrni boshdan kechirmoqda. 2022 yilga kelib dunyo YAIMning qariyb chorak qismi raqamli sektorga to'g'ri kelishi prognoz qilinayotgan bir sharoitda yangi iqtisodiyotni rivojlantirish zarurati yanada oydinlashadi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi. Raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi.

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi.

Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'liqni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi - bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi.

O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar

bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi.

2020-yilgacha AKTni iqtisodiyot sohasiga keng joriy etishga bir nechta sabablar to‘sqinlik qilgan. “ERGO Research & Advisory” konsalting xizmati tahlilchilarining izlanishlariga ko‘ra, bundagi asosiy muammo telekommunikatsiya infrastrukturasini va aloqaning yaxshi emasligidir. AKT sohasiga investitsiya kam kiritilishi natijasida tayanch aloqa stansiyalari zichligi past holatda bo‘lgan. Bu internet, mobil xizmatlarning yaxshi ishlamasligini keltirib chiqaradi, natijada raqamli iqtisodiy o‘rnatishni kamaytiradi, raqamli uzilishlarni keltirib chiqaradi. Quvonarlisi, joriy yilda bu boradagi ko‘rsatkich sezilarli darajada oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi axborot xizmati bergan ma’lumotlarga ko‘ra, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Internet tarmog‘iga ulanishning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati 1200 Gbit/s.ni tashkil etib, kommutatsiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmog‘iga chiqish imkoniyati yaratildi va tarmoqning yuklanish darajasi 76,6 foizni tashkil etmoqda. 2020-yilning 1-yanvaridan operator va provayderlarga Internet xizmatlari uchun tarif o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 34 foizga arzonlashtirilib, 1 Mbit/s uchun 56,0 ming so‘mni tashkil etdi. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 22 mln.dan ortdi, shundan mobil Internet foydalanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etdi. Respublika bo‘yicha 237 ta obyektida magistral telekommunikatsiya tarmoqlari kengaytirilib, telekommunikatsiya uskunalari modernizatsiya qilinib, magistral telekommunikatsiya tarmoqlari o‘tkazuvchanlik qobiliyati viloyatlararo darajada 200 Gbit/s.ga, tumanlararo darajada esa 40 Gbit/s.ga yetkazildi. Ijobiy natijalar bor, biroq bu yetarli degani emas.

Zero, raqamli iqtisodiyot aql bovar qilmas katta hajmda raqamli ma’lumotlarni to‘plashda davom etmoqda. 2022-yilda global IP trafik hajmi 150 700 Gbit/s(solishtirish uchun 2017-yil 45 000 Gbit/s) chiqishi kutilayotgani davrdan ortda qolmaslikka chaqiradi. Aholining barcha qismida ham raqamli malakaning yetarli emasligi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘ldagi yana bir to‘siq bo‘lib kelgan. Shuningdek, raqamli tovar aylanmasi ham past hisoblandi. Bu borada texnologiya olamida ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan “Microsoft” korporatsiyasi asoschisi Bill Geytsning bir fikrini eslash o‘rinli: “Tez orada Yer sharida faqat ikki tur kompaniyalar mavjud bo‘ladi. Birinchisi, internet orqali biznes qiluvchi va ikkinchisi, biznesdan chiqqan kompaniyalar”. Tadbirkorlar mana shu jihatni inobatga olgan holda, dunyoga mashhur biznes iste’molchi uchun, biznes biznes uchun, iste’molchi iste’molchi uchun tamoyillari asosida o‘z faoliyatini tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Click, Payme, M-bank, Upay, Oson va boshqa onlayn to‘lovlarga imkon beruvchi to‘lov tizimlari mavjud bo‘lishiga qaramay mobil to‘lovlar, internet, kommunal to‘lovlar uchun onlayn to‘lovlarni amalga oshirish ko‘rsatkichi yuqori emas. 2017-yilda 34 foiz hisob egalari raqamli to‘lovni amalga oshirgan. Solishtirish uchun bu ko‘rsatkich Buyuk Britaniyada 96 foizga teng. E’tiborlisi, terminal orqali to‘lovlar son oshib bormoqda. Masalan, 2018-yilda



terminal orqali to'lovlar 53 trillion so'mni tashkil etgan. Yutuqlar bilan birga muammolar mavjud, qilinadigan ishlar ko'p, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi".